


**TASDIQLAYMAN**  
«Kiberxavfsizlik markazi» DUK  
direktori  
  
O.N.Mirzayev  
“ ”  
2023-yil

**“UZ” domen zonasida joylashgan veb-saytlarni kiberxavfsizlik talablariga  
muvoifiqligi bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazish” xizmatini ko‘rsatish reglamenti**

**1. Xizmatning tavsifi (pasporti).**

1.1. Xizmatning nomi.

“UZ” domen zonasida joylashgan veb-saytlarni kiberxavfsizlik talablariga muvoifiqligi bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazish.

1.2. Xizmat natijasi.

Buyurtmachiga ekspertiza natijasida aniqlangan kiberxavfsizlik zaifliklari, veb-saytni ishlab chiqishda yo‘l qo‘yilgan xatolar tavsifi hamda ularni bartaraf etish borasida kerakli tavsiya va ko‘rsatmalar bo‘yicha batafsил hisobot taqdim etish.

1.3. Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot va blankalarni qabul qilish joyi.

“Kiberxavfsizlik markazi” DUK.

Manzil: 100015, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko‘ch., 20.

1.4. Huquqiy asos.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risada”gi PQ-4751-sonli Qarori.

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

Davlat organlari va tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar—“UZ” domen zonasidagi veb-saytlarning egalari va administratorlari.

1.6. Xizmat ko‘rsatish muddati.

Xizmatni bajarish muddati shartnomaga asosan belgilanadi ammo 1 ta veb-sayt tekshiruvi 30 ish kunidan kam bo‘lmagan muddatda bajariladi.

1.7. Tasdiqlash muddati

Buyurtmachining xizmatdan foydalanich uchun to‘g‘ri to‘ldirilgan, ro‘yxatdan o‘tgan arizasi bajaruvchiga kelib tushgandan boshlab, 3 ish kunida buyurtmachini electron pochta manziliga tegishli elektron bildirishnomasi yuborish orqali xabardor qilish.

**2. Xizmatdan foydalanuvchilarni xabardor qilish.**

2.1. Axborotning tarkibi va hajmi.

Har qanday arizachiga quyidagi ma’lumotlarni taqdim etish kafolatlanadi:

- xizmat ko‘rsatuvchi organning joylashgan joyi, uning ish jadvali, tashrif buyuruvchilarni qabul qilish tartibi (telefon orqali oldindan yozilish, jonli navbat va boshqalar) to‘g‘risida.;

- xizmatni ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi ma’lumot;

- xizmatni ko‘rsatish muddati to‘g‘risidagi ma’lumot;

- xizmatni ko‘rsatish reglamenti bilan tanishib chiqish to‘g‘risidagi ma’lumot.

2.2. Keng axborot berish.

Xizmatlar va texnik xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi standart ma’lumotlarni quyidagi manzildan olish mumkin:

- manzil orqali: 100015, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko‘ch., 20.;

- telefon raqami orqali: (99871) 203-00-23;

- Markazning “www.csec.uz” rasmiy veb-sayti orqali.

2.3. So‘rov asosida axborot berish

Shaxsan: murojaat etuvchi xizmatdan foydalanish va xizmat bo‘yicha qo‘shimcha

ma'lumotlar, to'lov rekvizitlari va talab qilinadigan hujjatlar ro'yxatini taqdim etish to'g'risidagi har qanday savollar bo'yicha soat 9:00 dan 18:00 gacha murojaat qilishlari mumkin.

Telefon orqali: 9:00 dan 18:00 gacha katta hajmdagi ma'lumotlarni, masalan, to'lov uchun muassasa tafsilotlarini aniq uzatishni talab qilmaydigan xizmatni olishning har qanday masalalari bo'yicha og'zaki maslahat olishlari mumkin (10 daqiqadan ko'p bo'limgan vaqtida).

Elektron pochta orqali.

2.4. Xizmat ko'rsatiladigan joy to'g'risida ma'lumot berish

Bosh ofis: Toshkent sh., Mirobod t., Tarasa Shevchenko k., 20.

2.5. Foydalilaniladigan hujjatlarning blankalari (shakllari)

- xizmat nomi ko'rsatilgan holda direktorning nomiga rasmiy xat-ariza yoki veb-saytdagi «xizmatga buyurtma berish» funksiyasi orqali to'ldirilgan ariza shakli;

- xizmat ko'rsatish uchun tomonlar o'rtaсидаги шартнома.

### 3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqtি

Ish vaqtি 9:00 dan 18:00 gacha. Tushlik soat 13:00 dan 14:00 gacha. Dam olish kunlari: shanba, yakshanba.

### 4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Kerakli hujjatlar

Xizmat ko'rsatish uchun 2.5-bandda belgilanganidan tashqari boshqa hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish talab qilinmaydi.

4.2. Xizmat to'lovi

Yuridik va jismoniy shaxslar uchun xizmat pullik-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

4.3. Xizmat ko'rsatish bosqichlari

Xizmat ushbu Reglamentning 1-ilovasiga muvofiq qabul qilingan ariza asosida yoki veb-saytdagi «Xizmatga buyurtma berish» funksiyasi orqali quyidagi havola bo'yicha amalga oshiriladi: <https://csec.uz/services/ekspertiza-veb-saytov-domennoy-zony-uz-nasootvetstvie-trebovaniyam-informatsionnoy-bezopasnosti/>. 3 ish kuni ichida ariza beruvchiga xizmat ko'rsatish uchun tasdiqnomasi yuboriladi, shundan so'ng ushbu Reglamentning 3-ilovasiga muvofiq shartnoma tuziladi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish bosqichlari ushbu Reglamentning 2-ilovasiga muvofiq sxema shaklida taqdim etiladi, shuningdek quyidagi bandlarni o'z ichiga oladi:

- xizmatni olish uchun ariza shaklini to'ldirish va bajaruvchining manziliga yuborish;

- xizmat ko'rsatish shartnomasini imzolash va shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida pul mablag'larini o'tkazish;

- to'lov joriy hisob raqamiga tushgan kundan boshlab 3 kundan kechiktirmay, ijrochi veb-sayt(lar)ning kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligini tekshirish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ishlarni boshlaydi;

- kiberxavfsizlik tahdidlari va zaifliklarini ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra aniqlanganlarni bartaraf etish bo'yicha hisobot va tavsiyalarni elektron formada, elektron pochta manziliga yuborish;

- agar ariza beruvchi tomonidan 3 kun ichida ko'rsatilgan xizmat bo'yicha asosida'volar bo'lmasa, ko'rsatilgan xizmat qabul qilingan deb hisoblanadi.

4.4. Arizani ro'yxatdan o'tkazishni rad etish uchun asoslar

- xizmat uchun murojaat qilgan shaxs uni olish huquqi yoki boshqa shaxs nomidan harakat qilish huquqiga ega emasligi;

- hujjatlarning belgilangan talablarga mos kelmasligi (to'liq bo'limgan ro'yxat, noto'g'ri to'ldirish);

- taqdim etilgan hujjatlarda haqiqatga mos kelmaydigan ma'lumotlarning mavjudligi;

- xizmat olish uchun murojaat qilgan shasning xizmat ko'rsatuvchi ijrochining talablariga mos kelmasligi.

## 5. Sifatni ta'minlash

### 5.1. Sifat parametrlari

Xizmat sifatsiz deb tan olinadi:

- agar xizmatni bajarish muddatiga amal qilinmasa;
- agar xizmat natijalari bo'yicha ekspertiza hisoboti ushbu Reglamentdagi 1.2-bandiga to'g'ri kelmasa;
- agar ariza beruvchining hisobot asosli da'volari bo'lsa.

### 5.2. Sifatsiz xizmat ustidan shikoyat qilish

Xizmatdan foydalanuvchi ko'rsatilgan xizmat natijalaridan norozilik sabablarini ko'rsatgan holda Markaz rahbarining nomiga rasmiy xat bilan murojaat qilishi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

#### Ishlab chiqdi:

Chora ko'rish bo'limi boshlig'i


«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023-yil



E.Xalikov

#### KELISHILGAN

Direktor o'rribbosari



Sh.Gafurov

UZCERT departamenti boshlig'i



A.Gafurov

Bosh buxgalter



I.Abdullayev

Yuridik byuro  
bosh yuriskonsulti




Z.Makkamov

Yetakchi iqtisodchi



M.Erxanov



*Muassasa rasmiy blankasida*

«Kiberxavfsizlik Markazi»  
DUK Direktoriga

Nº \_\_\_\_\_

Xizmat ko‘rsatish haqida

## ARIZA

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-sonli «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qarori ijrosini ta’milash maqsadida sizdan “UZ” domen zonasida joylashgan veb-saytlarni kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazish” xizmatini ko‘rsatishingizni so‘raymiz.

Ariza beruvchi haqida umumiylumot

Tekshirilayotgan sayt nomi	
Xosting	
Ma’sul xodimning FIO	
Aloqa uchun telefon raqam	
Tekshiruvlar ilgari o‘tkazilganmi (qachon va kim tomonidan)	

Amaldagi ekspertiza tartibi bilan tanishdik,e’tirozlar va izohlar mavjud emas.  
Shu bilan birga, ko‘rsatilgan xizmat uchun o‘z vaqtida to‘lov kafolatlanadi.

Tashkilot rahbari  
(lavozim)

\_\_\_\_\_  
(shaxsiy imzo)

M.Π.

“UZ” domen zonasida joylashgan veb-saytlarni kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazish” xizmatini ko‘rsatish Reglamentiga 2-ilova

## “UZ” domen zonasida joylashgan veb-saytlarni kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazish” xizmatini ko‘rsatish sxemasi

### Qisqartmalar:

Bajaruvchi – “Kiberxavfsizlik Markazi” DUK.

Buyurtmachi – jismoniy yoki yuridik shaxs.



“UZ” domen zonasida joylashgan veb-saytlarni kiberxavfsizlik talablariga muvofiqligi bo‘yicha ekspertizadan o‘tkazish” xizmatini ko‘rsatish Reglamentiga 3-ilova

## Xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha

### —son shartnoma

Toshkent sh.

2022 yil “ ”

Keyingi o‘rinlarda “**Bajaruvchi**” deb ataladigan “Kiberxavfsizlik markazi” DUK nomidan Ustav asosida ish ko‘rvuchi O. Mirzayev bir tomondan va keyingi o‘rinlarda “**Buyurtmachi**” deb ataladigan nomidan asosida ish ko‘rvuchi boshqa tomondan, ular birgalikda “Tomonlar”, alohida esa “Tomon” deb ataladilar, ushbu Shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar.

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Bajaruvchi ushbu Shartnomaning 1.2-bandida belgilangan xizmatlarni bajarish, Buyurtmachi esa bu xizmatlarga ushbu Shartnomaga bilan belgilangan shartlarda haq to‘lash majburiyatini zimmasiga oladi.

1.2. Shartnomaning predmeti quyidagi xizmatni taqdim etish hisoblanadi:

- Buyurtmachining “**age.fergana.uz**” veb-saytini kiberxavfsizlik tahdidlari va zaifliklarini aniqlash hamda Buyurtmachiga o‘tkazilgan ekspertiza yakunlari bo‘yicha rasmiy hisobot va aniqlangan kiberxavfsizlik tahdidlari va zaifliklarini bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etish maqsadlarida “**UZ**” domen zonasida va O‘zbekiston Respublikasi hududida xosting xizmatlari ko‘rsatuvchi milliy provayderlarning texnologik maydonchasida joylashtirilgan veb-saytni ekspertizadan o‘tkazish.

### 2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. Bajaruvchining huquq va majburiyatları:

2.1.1. Bajaruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonunga muvofiq o‘zi mustaqil xizmat ko‘rsatish uchun zarur metodlar, usullar va vositalarni qo‘llanish;

- xizmat ko‘rsatishda Buyurtmachidan qonunchilikka muvofiq, Buyurtmachining veb-saytiga kirishni ta’minlashni talab qilish, ushbu Shartnomaga muvofiq o‘z majburiyatlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tushuntirish va qo‘srimcha ma’lumotlarni olish;

- boshqa mutaxassislar va ekspertlarni, shuningdek boshqa tashkilotlarni ularning xatti-harakatlari uchun javobgarlikni zimmasiga olgan holda xizmat ko‘rsatishda ishtiroy etishga jalb qilish;

- Buyurtmachi Shartnomaga shartlarini buzgan hollarda xizmat ko‘rsatishdan bosh tortish. Bajaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

2.1.2. Bajaruvchining majburiyatları:

- xizmatlarni ko‘rsatishda Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonun talablariga rioya qilish;

- Buyurtmachining talabi bo‘yicha uni ishlarning borishi to‘g‘risida xabardor qilish;

- Axborotlashtirish to‘g‘risidagi qonunda ko‘zda tutilgan xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq ishlarni o‘tkazishga to‘sqinlik qiluvchi vaziyatlar, muddatlarning buzilish xavfi yuzaga kelishi oqibatida xizmatlarni ko‘rsatish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida imkon qadar qisqa

muddatlarda muammoning yechimini birgalikda izlash maqsadida Buyurtmachini darhol xabardor qilish;

- ushbu Shartnomada ko'rsatilgan shartlarda va muddatlarda ko'rsatilgan xizmatlar natijalarini taqdim etish.

- xizmatning o'z vaqtida va sifatli ko'rsatilishini ta'minlash;

- ushbu Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish davrida olingan Buyurtmachining maxfiy axborotini oshkor qilmaslik uchun barcha zarur choralarni ko'rish;

- ekspertiza natijalari bo'yicha hisobotda kamchiliklar aniqlanganida ularni bepul bartaraf etish.

Bajaruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarni ham zimmasiga olishi mumkin.

## 2.2. Buyurtmachining huquqlari va majburiyatları:

### 2.2.1. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

- Bajaruvchidan ushbu Shartnomaning shartlarini bajarish bilan bog'liq zarur axborotni so'rash va olish;

- Bajaruvchi ushbu Shartnoma shartlarini buzgan hollarda ushbu Shartnomani bajarishdan bosh tortish.

- sifati tegishlicha bo'lмаган xizmat ko'rsatilganida va/yoki u o'z vaqtida bajarilmagan hollarda – shartnoma shartlarini tegishlicha bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplashni va kamchiliklarni Bajaruvchi hisobidan bartaraf etishni talab qilish.

Buyurtmachi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### 2.2.2. Buyurtmachining majburiyatları:

- Bajaruvchi bilan o'zaro munosabatlarda axborot xavfsizligi sohasidagi qonunchilikka rioya qilish;

- xizmat ko'rsatish uchun o'zining veb-saytlariga kirish imkoniyatini o'z vaqtida taqdim etish;

- ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Bajaruvchining xizmatlariga o'z vaqtida haq to'lash;

- ushbu Shartnomada ko'rsatilgan shartlarda va muddatlarda ko'rsatilgan xizmat natijalarini qabul qilib olish.

- ushbu Shartnomaning 4.2-bandiga muvofiq, to'lov Bajaruvchining hisob raqamiga kelib tushgan vaqtdan boshlab 3 (uch) ish kuni mobaynida Bajaruvchiga veb-saytning zaxira nusxasini taqdim etish.

Buyurtmachi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarni ham zimmasiga olishi mumkin.

## 3. XIZMATLARNI KO'RSATISH TARTIBI

3.1. Tomonlar ko'rsatilgan xizmatlarni rasmiylashtirish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq boshqa masalalarni hal qilish uchun xizmatlarni ko'rsatish boshlanishiga qadar bevosita Buyurtmachining obyektlarida bittadan vakolatli shaxs tayinlaydilar.

3.2. Tomonlar tayinlangan vakolatli shaxslar to'g'risida bir-birlariga vakolatli shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, uning aloqa ma'lumotlarini va telefon raqami ko'rsatgan holda yozma yoki elektron shaklda xabar beradilar.

3.3. Bajaruvchi ushbu Shartnomaning 4.3-bandiga muvofiq, to'lov Bajaruvchining hisob raqamiga kelib tushgan vaqtdan boshlab 3 (uch) ish kuni mobaynida xizmatlarni bajarishga kirishadi. Ishlarni bajarish muddati ushbu Shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan ishlarni boshlangan kundan boshlab 1 (bitta) veb-sayt uchun 30 (o'ttiz) ish kunidan ko'p emas.

3.4. Tomonlar elektron hisobga olishni qo'llanish va elektron pochtadan foydalanib birlariga rasmiy hujjatlarni yuborish huquqiga ega. Ushbu shartnomada ko'rsatilgan elektron pochta manzili tomonlar elektron pochtasining rasmiy manzili hisoblanadi va elektron pochtadan foydalanib boshqa tomonga taqdim etiladigan barcha axborot rasman taqdim etilgan deb hisoblanadi.

Buyurtmachining elektron pochta manzili – [www.example.uz](http://www.example.uz);

Bajaruvchining elektron pochta manzili – [info@csec.uz](mailto:info@csec.uz);

3.5. Tomonlar har kuni elektron pochtani tekshirib turish va bir-birlaridan tushgan so'rovlari va axborotga o'z vaqtida javob berish majburiyatini zimmalariga oladilar.

3.6. Bajaruvchi va Buyurtmachi o'rtasida ko'rsatilgan xizmatning natijalarini topshirish-qabul qilish Buyurtmachiga o'tkazilgan ekspertiza yakunlari bo'yicha hisobot va aniqlangan axborot xavfsizligiga tahdidlar va uning zaifliklarini bartaraf etish bo'yicha tavsiyalarni elektron shaklda Buyurtmachining elektron manziliga taqdim qilish asosida amalga oshiriladi. Agar Buyurtmachi ko'rsatilgan xizmatlar natijalarini olgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni mobaynida o'z e'tirozlarini (fikr-mulohazar ro'yxatini) Bajaruvchining elektron pochta manziliga elektron shaklda yoki telefon orqali og'zaki tarzda taqdim etmasa, ko'rsatilgan xizmatlar qabul qilingan va haqi to'lanishi shart deb hisoblanadi.

#### 4. XIZMATLARNING QIYMATI VA HISOB-KITOBLAR TARTIBI

4.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlarning umumiyligi qiymati Narxlarni kelishish protokoliga (1-ilovaga) muvofiq 1 (bitta) veb-sayt uchun QQS ni hisobga olganda **5 535 320,00 (besh million besh yuz o'ttiz besh ming uch yuz yigirma) so'mni** tashkil etadi.

4.2. Hisob-kitob turi-to'lov topshiriqlari bilan ijrochining hisob raqamiga pul o'tkazish.

4.3. Buyurtmachi ushbu shartnoma ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab **10 (o'n)** bank kuni mobaynida ijrochining hisob raqamiga ishlarning umumiyligi qiymatidan 30% miqdorida oldindan haq to'laydi – **1 660 596 (Bir million olti yuz oltmish ming besh yuz tyqson olti) so'm** QQSni hisobga olgan holda

4.4. Ishni tugatish natijalari bo'yicha Bajaruvchi buyurtmachiga ko'rsatilgan xizmatlarni (keyingi o'rnlarda-dalolatnama) topshirish – qabul qilish dalolatnomasini Bajaruvchi tomonidan tasdiqlangan hisobot bilan birgalikda taqdim etadi.

4.5. Buyurtmachi e'tirozlari bo'lmasa Bajaruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatni imzolaydi. Bajaruvchi dalolatnama imzolangan taqdirda dalolatnama imzolangandan keyin **5 (besh)** bank kuni mobaynida belgilangan namunadagi hisob-fakturani taqdim etishi shart.

4.6. Ish umumiyligi 70 % miqdorida yakuniy to'lov QQS bilan **3 874 724 (uch million sakkiz yuz yetmish tyrt ming yetti yuz yigirma tyrt) so'mni** tashkil etadi, bu hisob-fakturni buyurtmachiga taqdim etilgan vaqtdan boshlab 3 (uch) bank kuni mobaynida to'lanishi lozim.

#### 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI VA NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

5.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganligi yoki tegishlichcha bajarmaganligi uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar. Bunda shuningdek Tomonlarning munosabatlariga nisbatan «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida» gi qonunining javobgarlik choralarini belgilash qismidagi me'yordi qo'llaniladi.

5.2. Buyurtmachi xizmatlarni ko'rsatish muddatlari buzilishi uchun Bajaruvchidan o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun muddatida ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatidan 0,5%, lekin ko'rsatilmagan xizmat umumiyligi qiymatining 50% dan ko'p bo'lmasa miqdorda penya to'lashni talab qilish huquqiga ega.

5.3. Bajaruvchi xizmatlarga haq to‘lash muddatlarining buzilishi uchun o‘tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun muddati o‘tgan to‘lov summasidan 0,5%, lekin muddati o‘tkazib yuborilgan to‘lov summasining 50% dan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya to‘lashni talab qilish huquqiga ega.

5.4. Buyurtmachi uchinchi shaxslarga o‘z veb-saytiga kirish uchun ruxsat bergan hollarda uchinchi shaxslarning faoliyati uchun Buyurtmachi javobgar bo‘ladi.

5.5. Bajaruvchi uchinchi shaxslarga xizmat ko‘rsatish uchun ruxsat bergan hollarda uchinchi shaxslarning faoliyati uchun Bajaruvchi javobgar bo‘ladi.

5.6. Buyurtmachi 2.2.2-bandda ko‘rsatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, Bajaruvchi ko‘rsatilgan xizmatning to‘liqligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

5.7. Tomonlar o‘rtasida ushbu Shartnomani bajarish borasida yuzaga keladigan barcha nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan hal qilinadi.

5.8. Tomonlarning muzokaralari yo‘li bilan hal qilinmagan ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan, unga taalluqli yoki u bilan bog‘liq har qanday nizo, shu jumladan uning mavjudligi, qonuniylici, talqin etilishi, bajarilishi, buzilishi yoki to‘xtatilishi xususidagi har qanday masala, shuningdek, Shartnomaga taalluqli yoki u bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan har qanday talab yoki e’tiroz o‘rnatilgan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

5.9. Ushbu Shartnoma bilan ko‘zda tutilmagan qolgan barcha hollarda Tomonlar Shartnoma bo‘yicha o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarning buzilishi uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

5.10. Tomonlar o‘zaro kelishmasdan turib ushbu Shartnoma bo‘yicha bir-birlarining manfaatlariga dahl qiladigan hech qanday harakatlarni qilmaydilar.

## **6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA BEKOR QILISH TARTIBI**

6.1. Ushbu shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanadan boshlab kuchga kiradi va 2023 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

6.2. Tomonlar ushbu Shartnomaning shartlari va majburiyatları bajarilmaganda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko‘zda tutilgan asoslarda Shartnomaning amal qilishini to‘xtatishi mumkin.

6.3. Tomonlardan istalgani ushbu Shartnomaning amal qilishini, bu haqida boshqa Tomonni Shartnomani bekor qilishning taxmin qilinayotgan sanasidan 3 (uch) kun oldin yozma ogohlantirib, bir tomonlama tartibda to‘xtatish huquqiga ega.

6.4. Xizmatlar bajarilgan, ya’ni ko‘rsatilgan xizmatlarning natijalari Buyurtmachiga taqdim etilgan hollarda Shartnomaning Buyurtmachi tomonidan to‘xtatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

6.5. Pul mablag‘lari ushbu Shartnomaning 4.3-bandida ko‘rsatilgan tartibda tushmagan hollarda Shartnoma Buyurtmachining aybi bilan bir tomonlama tartibda bekor qilingan deb hisoblanadi.

## **7. MAXFIYLIK**

7.1. Bajaruvchi tomonidan ushbu Shartnoma doirasida ishlab chiqilgan barcha hujjatlar Buyurtmachining maxfiy axboroti hisoblanadi va Buyurtmachining oldindan olingan yozma rozilgisiz har qanday uchinchi tomonga berilishi mumkin emas.

7.2. Buyurtmachi tomonidan ushbu Shartnomani amalga oshirish doirasida taqdim etilgan barcha hujjatlar Buyurtmachining maxfiy axboroti hisoblanadi.

7.3. Tomonlar ushbu Shartnomaning amal qilish muddati mobaynida ham, amal qilish muddati tugaganidan keyin ham biror-bir Maxfiy axborotni oshkor etmasliklari, tarqatmasliklari, biror-bir uchinchi tomonga bermasliklari zarur, axborot O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq taqdim etiladigan hollar bundan istisno.

## **8. FORS MAJOR**

8.1. Tomonlardan hech biri ushbu Shartnoma bo'yicha o'zining majburiyatlaridan birortasini to'liq yoki qisman bajarmaganligi uchun, agar bunday bajarmaslik suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, embargo, urush yoki harbiy harakatlari, shartnoma imzolanganidan so'ng kuchga kirgan va uning bajarilishiga to'sqinlik qiladigan Hukumat qarorlarining oqibati hisoblanadigan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi. Agar bunday vaziyatlardan istalgani majburiyatlarning ushbu Shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda bajarilishiga bevosita ta'sir qiladigan bo'lsa, bu muddat tegishli vaziyatning amal qilish vaqtiga teng muddatga suriladi.

## **9. BOSHQA SHARTLAR**

9.1. Ushbu Shartnoma Tomonlarning har biri uchun bittadan ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

9.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha amalgaga oshirilayotgan ishlarning muddatlarini, hajmlarini yoki qiymatini aniqlashtirish zaruriyati yuzaga kelgan hollarda, Tomonlar o'zaro kelishuv bo'yicha ushbu Shartnomani o'zgartirishlari yoki unga qo'shimchalar kiritishlari mumkin, bu Tomonlar imzolaydigan va bunday buyon Shartnomaning ajralmas qismini tashkil etadigan yozma qo'shimcha kelishuv bilan rasmiylashtiriladi.

9.3. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish zaruriyati bilan bog'liq qo'shimcha ishlarga qo'shimcha kelishuvlar tuziladi. Qo'shimcha xizmat turlarining amalda bo'lish vaqtiga va ularni bajarish shartlari va qiymatlari qo'shimcha kelishuvda belgilanadi.

9.4. Ushbu Shartnoma bilan ko'zda tutilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.

## **10. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA DOIR MAJBURIY SHARTLAR**

10.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

10.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

10.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga hilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdag'i imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdag'i harakatlarni amalgaga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.

Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridaq harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

10.4 Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zining ijroiya organlari, mansabdar shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladai, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'yaydi:

a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalgaga oshirish, sudda ish ko'rishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga hilof ravishda tijorat yoki boshqa tusdagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridaq shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga;

b) qonunga hilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilagini yashirishga;

v) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat buyicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

10.5. Taraflar tovarlar, xizmat va ishlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda, bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyuterlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarga) nisbatan qo'yidagi harakatlarni amalga oshirishi shart:

- korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;
- ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;
- ularni faqat tarafning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalg qilish;
- ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarini amalga oshirmaslik.

10.6. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

10.7. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 10.4 va 10.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yanligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu hakda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'riliшини va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart.

Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha belgilangan muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## 11. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

### “BUYURTACHI”:

### “BAJARUVCHI”:

«Kiberxavfsizlik markazi» DUK  
Yuridik manzili: Toshkent sh., Mirzo  
Ulug'bek tumani, Do'rmon yo'li ko'ch., 31-uy  
h/r: 2021 0000 4009 5333 9007  
AT «Aloqa Bank»  
MFO: 00 401 STIR: 305 907 639  
Telefon: 71-203-55-11

F.I.Sh.

O. Mirzayev

“\_” 2022 yil

“\_” 2022 yil

2022 yil “\_” dagi  
Xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha  
—son shartnomaga 1-ilova

### Narxlarni kelishish Bayonnomasi

Buyurtmachi nomidan - \_\_\_\_\_

**Bajaruvchi nomidan** — “Kiberxavfsizlik markazi” DUK direktori Mirzayev O. 2023-yil “\_” dagi \_\_\_\_\_-son shartnoma bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishda quyidagi narxlarni qo‘llanish to‘g‘risida kelishib oldilar:

- veb-saytning zaxira nusxasini olish, test maydonchasida ochish, tahlilini o‘tkazish (kishi/soat uchun 197 690 so‘m narx bo‘yicha 2 soat);
- veb-saytda viruslar mavjudligini tekshirish (kishi/soat uchun 197 690 so‘m narx bo‘yicha 2 soat);
- zaifliklarini avtomatik izlash (kishi/soat uchun 197 690 so‘m narx bo‘yicha 3 soat);
- topilgan zaifliklarni tekshirish (kishi/soat uchun 197 690 so‘m narx bo‘yicha 4 soat);
- chiquvchi kodda zaifliklar mavjudligini izlash (kishi/soat uchun 197 690 so‘m narx bo‘yicha 5 soat);
- saytni boshqarish tizimining yadrosida zaif tomonlar mavjudligini izlash (kishi/soat uchun 197 690 so‘m narx bo‘yicha 5 soat);
- zaifliklar va ta’sirchan axborot sizib chiqishi mavjudligini qo‘lda izlash (kishi/soat uchun 197 690 so‘m narx bo‘yicha 6 soat);
- ekspertiza/hisobot tayyorlash natijalari bo‘yicha tahlil o‘tkazish (kishi/soat uchun 197 690 so‘m narx bo‘yicha 1 soat).

Bitta o‘rtacha murakkablikdagi veb-saytning ekspertizasini o‘tkazish uchun bitta ekspert jalb qilinadi, xizmat ko‘rsatishning jami nominal vaqtiga 28 soat, ko‘rsatiladigan xizmatlar umumiy summasi QQS ni hisobga olgan holda 5 535 320,00 (besh million besh yuz o‘ttiz besh ming uch yuz yigirma) so‘mni tashkil etadi.

To‘lanishi kerak bo‘lgan summa 5 535 320,00 (besh million besh yuz o‘ttiz besh ming uch yuz yigirma) so‘m.

Ushbu narxlarni kelishish bayonnomasi shartnomaning ajralmas qismi va Buyurtmachi hamda Bajaruvchi o‘rtasida o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

Buyurtmachi \_\_\_\_\_  
M.o‘.

Bajaruvchi \_\_\_\_\_  
M.o‘.